

**O‘ZBEKISTON VA CHET DAVLATLARIDA QO‘SHIMCHA
JAZOLARNI TAYINLASH VA IJRO ETISH MUAMMOLARI**

Dauletbaeva Nodira Baxadir qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

Annotatsiya: mazkur maqolada O‘zbekiston jinoyat qonunchiligida jazo tushunchasi, jazo tizimi, qo‘shimcha jazolar, ularning ahamiyati, turlari va ularni tayinlash hamda ijro etishdagi amaliy muammolar tahlil qilinadi. Asosiy e’tibor qo‘shimcha jazolar tushunchasining huquqiy mohiyati va ularning turlariga qaratilgan. Shuningdek, qo‘shimcha jazolarni tayinlashda O‘zbekiston bilan solishtirganda chet davlatlar qonunchiligidagi tajribasi ko‘rib chiqiladi. Xulosa qismida qo‘shimcha jazolarni tayinlash va ijro etishdagi mavjud muammolar keltiriladi.

Kalit so‘zlar: jazo turlari, asosiy jazolar, qo‘shimcha jazo, aralash turdagi jazo, muayyan huquqdan mahrum qilish.

**ПРОБЛЕМЫ НАЗНАЧЕНИЯ И ИСПОЛНЕНИЯ
ДОПОЛНИТЕЛЬНЫХ НАКАЗАНИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ И
ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАНАХ**

Даулетбаева Нодира Бахадир кизи

Магистрант Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация: в статье анализируются понятие наказания в уголовном праве Узбекистана, система исполнения наказаний, дополнительные наказания, их значение, виды, а также практические проблемы их назначения и исполнения. Основное внимание уделено правовой сущности понятия дополнительных видов наказания и их видам. Также при назначении дополнительных мер наказания учитывается опыт зарубежных стран в законодательстве, в сравнении с Узбекистаном. В заключении

изложены существующие проблемы в применении и исполнении дополнительных наказаний.

Ключевые слова: *виды наказаний, основные наказания, дополнительные наказания, смешанные наказания, лишение определенных прав.*

PROBLEMS OF ASSIGNMENT AND ENFORCEMENT OF ADDITIONAL PUNISHMENTS IN UZBEKISTAN AND FOREIGN COUNTRIES

Dauletbaeva Nodira Bakhadir kizi

Master's student of Tashkent State University of Law

Abstract: *this article analyzes the concept of punishment in the criminal legislation of Uzbekistan, the punishment system, additional punishments, their significance, types and practical problems in their assignment and execution. The main attention is paid to the legal essence of the concept of additional punishments and their types. Also, the experience of foreign countries in the assignment of additional punishments in comparison with Uzbekistan is considered. The conclusion presents existing problems in the assignment and execution of additional punishments.*

Keywords: *types of punishment, main punishments, additional punishment, mixed type of punishment, deprivation of a certain right.*

Jinoyat qonunchiligida jazo tushunchasi - jinoyat sodir etishda aybli deb topilgan shaxsga nisbatan davlat nomidan sud hukmi bilan qo'llanadigan va mahkumni qonunda nazarda tutilgan muayyan huquq va erkinliklardan mahrum qilish yoki ularni cheklashdan iborat majburlov chorasidir. Jazoni tanlash va uning qo'llanishidan ko'zlanayotgan maqsad mahkumni axloqan tuzatish, uning jinoiy

faoliyatini davom ettirishga to'sqinlik qilish hamda mahkum, shuningdek, boshqa shaxslar yangi jinoyat sodir etishining oldini olish uchun qo'llaniladi.

Jinoyat huquqida jinoyat sodir etgan shaxsga nisbatan qo'llaniladigan jazolar tizimi odatda asosiy va qo'shimcha jazolardan iborat. Qo'llanish va ijro etish mustaqilligi darajasi bo'yicha jazo turlari uch xil kichik tizimlarga, asosiy, qo'shimcha va aralash kichik tizimlarga bo'linadi, bular esa ham asosiy, ham qo'shimcha jazo tizimlari sifatida e'tirof etilishi mumkin.

Asosiy jazolar – jarima, muayyan huquqdan mahrum qilish, majburiy jamoat ishlari, axloq tuzatish ishlari, xizmat bo'yicha cheklash, ozodlikni cheklash, intizomiy qismga jo'natish, ozodlikdan mahrum qilish, umrbod ozodlikdan mahrum qilish – bularning barchasi faqat mustaqil jazo turlari sifatida tayinlanishi mumkin va ularni davlat majburlovining boshqa choralariga qo'shib tayinlash mumkin emas.

Qo'shimcha jazo esa – asosiy jazoga qo'shimcha ravishda qo'llaniladigan chora bo'lib, jazoni kuchaytirish yoki maqsadga muvofiq yo'naltirish uchun tayinlanadi. Ya'ni harbiy yoki maxsus unvondan mahrum qilish jazo chorasi davlat majburlovining asosiy jazo choralariga qo'shiladi va mustaqil tarzda qo'llanishi mumkin emas. U asosiy jazodan keyin yoki asosiy jazo bilan birga qo'llanilib, jabrlanuvchining huquq va manfaatlarini himoya qilish, jinoyat sodir etishda aybli deb topilgan shaxsni kengroq nazorat qilish, unga bo'lgan ta'sirni kuchaytirish maqsadida qo'llaniladi.

O'zbekiston jinoyat qonunchiligining jazo tizimida keltirilgan jazolarning yana bir turi, bu aralash toifadagi jazo bo'lib, ya'ni JK maxsus qismining muayyan moddalarida keltirilgan sanksiyalar tuzilishiga bog'liq holda muayyan huquqdan mahrum qilish jazosi ham asosiy, ham qo'shimcha jazo sifatida qo'llaniladi.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining 45-moddasi 1-qismi mazmuni bo‘yicha, muayyan huquqdan mahrum qilish ko‘rinishidagi jazo chorasini tayinlashda taqiqlash faqat muayyan lavozimni egallashga yoki muayyan faoliyatni amalga oshirishga taalluqli bo‘ladi. Aynan shu moddaning 2-qismida muayyan huquqdan mahrum qilish jazosi qo‘shimcha jazo sifatida qo‘llanilganda – bir yildan uch yilgacha, asosiy jazo sifatida esa bir yildan besh yilgacha muddatga tayinlanishi nazarda tutilgan. Mazkur jazoning qo‘llanishi asosiy jihatdan, egallagan lavozimi yoki amalga oshiriladigan faoliyati bilan bog‘liq holda mavjud imkoniyatlarni suiste‘mol qilish bilan bog‘liq bo‘lgan jinoyatlarni sodir etadigan shaxslar tomonidan mazkur jinoyatlarni qayta sodir etilishining oldini olish zaruriyati bilan shartlanadi.¹ Aybdor o‘zi egallagan lavozim yoki xizmat faoliyati bilan bevosita bog‘liq holda jinoyat sodir etgan har bir holda, sud jinoyatning xususiyatidan kelib chiqib, mahkumni u yoki bu mansabni egallash yoki muayyan faoliyat bilan shug‘ullanish huquqidan mahrum qilish masalasini muhokama qilishi shart. Bunday jazoni tayinlash paytida hukmning qaror qismida sudlanuvchi shug‘ullanishi mumkin bo‘lmagan mansab xarakteri yoki faoliyat turi aniq ko‘rsatilishi kerak. Hukm chiqarilayotgan paytda mahkum jinoyat sodir etilishi bilan bog‘liq bo‘lgan mansabni egallamasligi yoki faoliyat turi bilan shug‘ullanmasligi holati qo‘shimcha jazo qo‘llash uchun to‘siq bo‘lmaydi.²

Yuqorida aytib o‘tganimizdek, muayyan huquqdan mahrum qilish – jazoning aralash turi bo‘ladi, ya’ni u ham asosiy jazo shaklida, ham qo‘shimcha jazo shaklida bo‘lishi mumkin. Ta’kidlab o‘tishimiz lozimki, ushbu jazoni asosiy

¹ Rustambayev M.X. O‘zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. Tom 2. Jazo haqida ta’limot. Darslik. 2-nashr, to‘ldirilgan va qayta ishlangan. – T.: O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti, 2018. – 335 bet.

² O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2006-yil 3-fevraldagi “Sudlar tomonidan jinoyat uchun jazo tayinlash amaliyoti to‘g‘risida”gi 1-sonli qarori, 45-band.

jazo sifatida qo‘llash faqat u JK maxsus qismining tegishli moddasi sanksiyasida ko‘rsatilgan holatlarida mumkin bo‘ladi. Muayyan huquqdan mahrum qilishning qo‘shimcha jazo sifatida belgilanishi esa JK 45-moddasi 3-qismiga muvofiq, har qanday holatda, hatto uning qo‘llanishi JK maxsus qismining tegishli moddasi sanksiyasida ko‘rsatilmagan holatlarida ham mumkin bo‘ladi. Bunda shu turdagi jazoning qo‘llanishi albatta hukmning asoslovchi qismida JK 45-moddasi 3-qismiga havola qilingan holda tavsiflanishi lozim. Muayyan huquqdan mahrum qilishning moddaning sanksiyasida u asosiy jazo sifatida nazarda tutilgan holatlarda qo‘shimcha jazo sifatida belgilanishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Keyingi qo‘shimcha jazo – harbiy yoki maxsus unvondan mahrum qilish bo‘lib, u mustaqil tarzda qo‘llanilmaydi, balki faqat asosiy jazo bilan birgalikda tayinlanishi mumkin. Bu jazoning o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, u eng avvalo tegishli unvon yoki mukofotlarga ega bo‘lgan mahkumlar uchun mo‘ljallangan muayyan huquqlar yoki imtiyozlardan mahrum qilish orqali unga ma’naviy-ruhiy ta’sir o‘tkazishga qaratilgan. JK 52-moddasi 1-qismiga muvofiq, «Harbiy yoki maxsus unvonga ega bo‘lgan shaxs og‘ir yoki o‘ta og‘ir jinoyat uchun hukm qilinganida sud hukmi bilan mazkur unvondan mahrum qilinishi mumkin» - deb ko‘rsatilgan. Ushbu moddaning 2-qismida, «Oliy harbiy yoki maxsus unvonga yoxud O‘zbekiston Respublikasining davlat mukofotiga ega bo‘lgan shaxs og‘ir yoki o‘ta og‘ir jinoyati uchun hukm qilinganida sudning hukm asosida kiritadigan taqdimnomasiga binoan mazkur unvon yoki mukofotdan mahrum qilinishi mumkin» - deb ta’kidlab o‘tilgan.

Yuqoridagi moddada, oliy harbiy yoki maxsus unvonlar, shuningdek, davlat mukofotlari yuzasidan sud faqat tegishli unvonni yoki mukofotni bergan organga jinoyatni sodir etishda aybdor deb topilgan shaxsni undan mahrum qilish

to'g'risidagi taqdimnoma kiritishga haqli ekanligi kelib chiqadi. Shunday qilib, unvon yoki mukofotdan mahrum qilish masalasini hal qilish faqat ushbu shaxsga tegishli unvon yoki mukofot bergan organga yuklatiladi.

Rossiya jinoyat qonunchiligidagi qo'shimcha jazolar kontseptsiyasining O'zbekiston jinoyat qoninchiligi bilan o'xshash taraflari ham bor bo'lib, amaldagi Jinoyat kodeksining 44-moddasida jazo tizimi ko'rsatilgan bo'lib, unda 13 turdagi jazo turlari sanab o'tilgan. Ushbu kodeksning 45-moddasida esa jazolar 3 turga: birinchisi asosiy, ikkinchisi aralash (ya'ni ham asosiy ham qo'shimcha jazo sifatida tayinlanadigan jazolar), uchinchisi faqat qo'shimcha jazolarga bo'lingan. Rossiya jinoyat qonunchiligida asosiy jazo turlari qo'shimcha jazo sifatida harakat qilishi mumkin, masalan, jarima ham asosiy jazo turi, hamda qo'shimcha jazo sifatida ham ko'rib chiqilishi mumkin.

Amaliyotda qo'shimcha jazolarni tayinlashda bir qator kamchiliklar va muammolar aniqlangan. Birinchidan, sudlar tomonidan qo'shimcha jazolarga yetarli e'tibor qaratilmasligi keng tarqalgan masala hisoblanadi.

Qo'shimcha jazolarni ijro etish jarayonida ham bir qator muammolar yuzaga keladi. Avvalo, mazkur jazolar ijrosi nazariy va amaliy jihatdan boshqacha soha bo'lgani uchun, ularni qanday tartibda kuzatish va bajarish masalasi noaniq. Masalan, O'zbekiston JK 61-moddasiga binoan ilgari tayinlangan, ammo ijro etilmagan qo'shimcha jazolar sudlanuvchiga nisbatan chiqarilgan yangi hukmga asosiy jazo bilan birga qo'shib tayinlanadi. Bu qoida sodir bo'layotgan voqealarga moslashtirilmagan va murakkab vaziyatlar keltirib chiqaradi: mahkum birinchi hukmni hali o'tagunicha, ikkinchi jinoyat uchun yana jazo oladi. Bunday holatda ilgari tayinlangan qo'shimcha jazo muddatini sud qanday o'tkazishni aniq belgilab qo'yishi qiyin.

Umuman olganda, qo‘shimcha jazolarni ijro etishda nazorat, axborot almashuvi va xodimlar tayyorgarligi masalalari hal etilmagan. Mazkur muammolarni yengish uchun maxsus yo‘riqnomalar qabul qilish, tashkiliy choralar ko‘rish hamda xizmatda yordam beruvchi mutaxassislarni tayyorlash zarur.

Xulosa

Maqolada O‘zbekiston va chet davlatlardagi qo‘shimcha jazolarni tayinlash hamda ijro etish masalalari taqqoslab o‘rganildi. Natijada aniqlanishicha, yuridik madaniyat va huquqiy an‘analarga ko‘ra bu jarayonlarda ba’zi o‘ziga xos vaziyatlar bor. O‘zbekiston amaliyotida sudlar qo‘shimcha jazolarga yetarli darajada e‘tibor bermayotgani, qonunchilik ayrim masalalarni hujjatlashtirishi lozimligi aniqlandi. Chet davlatlar tajribasi va amaliy o‘rganishlar shuni ko‘rsatdiki, mazkur muammolarni hal etish uchun ilmiy asoslangan takliflar joriy etilishi kerak. Xususan, JKga kiritilayotgan yangilanishlar doirasida qo‘shimcha jazolar ro‘yxatini kengaytirish (chet el fuqarolarini deportatsiya qilish) va ularning ijrosiga oid yangi mexanizmlarni yo‘lga qo‘yish zarur. Shuningdek, sud-huquq amaliyotini yaxshilash maqsadida qo‘shimcha jazolarni sudlanuvchining shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda belgilash usullari ishlab chiqilishi, sudlar uchun metodik qo‘llanmalar va Plenum tavsiyalari asosida muntazam treninglar tashkil etilishi lozim.

Yuqorida keltirilgan yondashuvlar O‘zbekistonning chet el tajribasi bilan solishtirilgan holda qo‘shimcha jazolar institutini takomillashtirishga xizmat qiladi. O‘zbekiston va rivojlangan mamlakatlarda amalda qo‘llanilayotgan usullarni integratsiya qilish orqali, jazolar tizimida insonga hurmat tamoyiliga yanada mos keladigan holat barpo etish mumkinligi ta’kidlandi. Hujjatda ko‘rsatilgan tavsiyalar

bajarilsa, qo‘shimcha jazolarning huquqiy asoslari aniq va ravshan bo‘lib, ularning ijrosi ham samarali nazoratga olinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2023.
2. Rustambayev M.X. O‘zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. Tom 2. Jazo haqida ta’limot. Darslik. 2-nashr, to‘ldirilgan va qayta ishlangan. – T.: O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti, 2018. – 335 bet.
3. Дементьев С.Р., Дьяченко Р.А., Трахов А.И. Уголовное наказание: содержание, виды, назначение и исполнение. – Краснодар: 2000. – 31 Б.
4. Уголовный кодекс Российской Федерации: федер. закон от 13.06.1996 № 63-ФЗ (ред. от 01.07.2021) (с изм. и доп., вступ. в силу с 01.12.2021) // Собрание законодательства РФ. 1996. № 25. Ст. 2954.
5. Уголовный кодекс Республики Казахстан. (с изменениями и дополнениями по состоянию на 05.04.2025 г.)